

SHARTNOMA № 33
tovar oldi-sotdisi bo'yicha

Toshkent sh.

“18” 01 20 22 yil

“Yasmina Farm Group” MChJ (keyingi o'rinlarda “Sotuvchi” deb yuritiladi) nomidan Ustav asosida harakat qiluvchi jamiyat direktori U.A. Abdillaev bir tomondan, “Ebbiyot B” (keyingi o'rinlarda “Xaridor” deb yuritiladi) nomidan Ustav asosida harakat qiluvchi tashkilot rahbari A.M. Ganiev Ikkinchi tomondan, quyidagilar haqida mazkur shartnomani tuzdilar:

SHARTNOMA PREDMETI

1.1 “Sotuvchi” “Xaridor”ga shartnomada belgilangan muddatda o'z tasarrufida bo'lgan tayyor dori-darmon mahsulotlari, tibbiy asbob-uskunalar, dorivor damlamalar (biologik faol qo'shimchalardan tarkib topgan oziqlantiruvchi mahsulotlar), turli vitamin majmualardan tarkib topgan og'riq qoldiruvchi va davolovchi mahsulotlarni (keyingi o'rinlarda “Mahsulot” deb yuritiladi), buyurtmada ko'rsatilgan hajm va assortimentni tasdiqlovchi hujjatlar bilan ushbu shartnoma shartlariga ko'rsatilgan tartibda yetkazib berish majburiyatini o'z zimmasiga oladi (“Mahsulot” turi va miqdori “Xaridor”ning buyurtmasi bo'yicha tuzilgan “Spetsifikatsiya”ga asosan hisob-fakturada ko'rsatiladi).

1.2 “Xaridor” esa yetkazib berilgan “Mahsulot”ni qabul qilib olish va sotuvchiga mazkur shartnomaning belgilangan tartibda to'liq rasmiylashtirib, quyidagi hujjatlarni, ya'ni:

- O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash Vazirligi tomonidan farnatsevtika faoliyatini amalga oshirish uchun berilgan Litsenziya nusxasi;
- Davlat ro'yxatidan o'tganligi to'g'risida Guvohnoma nusxasi;
- Fiskal xotirali nazorat kassa mashinasi o'rnatilganligi to'g'risida ruxsatnoma nusxasi;
- Yuridik shaxs nomidan shartnomalarni imzolash huquqiga ega bo'lgan shaxslarning vakolatlarini tasdiqlovchi hujjatlar (fuqarolik pasporti nusxasi ilova qilingan holda buyruq yoki ishonchnoma nusxasi)ni taqdim qilish majburiyatini oladi.

1.3. Shartnomaning umumiy summasi shartnomaning amal qilish davrida bandi “Sotuvchi” tomonidan “Xaridor”ga yetkazib berilgan “Mahsulot”larning umumiy qiymatini tashkil qiladi. Shartnomaning umumiy summasi 18/89999650 (8 ta xabir 2 mln 800 yuz to'qqiz ming to'qqiz yuz to'qqiz min tashkil etadi) tashkil etadi. Shartnoma buyicha yetkazib beriladigan mahsulotlarning assortimenti, miqdori, narxi, stummasi, mahsulot olingan xisob-varaq fakturalar summasiga teng xisoblanadi va topshirish-qabul qilish dalolatnomalari va tomonlar o'rtasida tuziladigan solishtirma dalolatnomalar orqali aniqlanadi.

2. TO'LOVNI AMALGA OSHIRISH SHARTLARI

2.1. “Xaridor” tomonidan yetkazib berilishi lozim bo'lgan har partiya “Mahsulot” narxining 30 foizidan kam bo'lmagan pul mablag'ini boshlang'ich to'lov sifatida pul ko'chirish yo'li bilan amalga oshirilgandan so'ng 10 kun muddat ichida mahsulotlarini yetkazib beradi. Mahsulotning bir birlik narxi shartnomaga ilova xisoblangan “spetsifikatsiya”ga asosan belgilanadi.

2.2. Xaridor shartnomaning 2.1 bandiga asosan Hisob-faktura umumiy miqdorining qolgan 70% qismi sotuvchi tomonidan Hisob-varaqa chiqarilgan sanadan boshlab 10 bank ish kunilik muddatda to'lovni amalga oshirishi shart.

2.3. O'zbekiston Respublikasi hududida eng kam oylik ish haqining miqdori ko'tarilsa, shuningdek shartnomada nazarda tutilgan “Mahsulot”ni ishlab chiqarish va yetkazib berishga bilan bog'liq xarajatlarning ko'tarilsa, bundan tashqari “Sotuvchi” faoliyati yuritishi bilan bog'liq majburiy to'lovlar va soliqlarning oshirilsa shartnomada nazarda tutilgan “Mahsulot” tannarxi oshirilishi mumkin.

3. TOMONLARNI MAJBURIYATLARI VA HUQUQLARI

3.1. “Xaridor”ning majburiyatlari:

3.1.1. Tegishli tartibda shartnomani imzolagandan so'ng ushbu shartnomaning 1.2. bandida ko'rsatilgan hujjalarni taqdim qilishi;

3.1.2. “Sotuvchi” o'z tasarrufidagi “Mahsulot”ni yetkazib berishni boshlashi uchun shartnoma ko'rsatilgan to'lovni yoki oldindan to'lov (avans)ni to'lab berishi;

3.1.3. “Sotuvchi” tomonidan shartnoma bo'yicha yetkazib berilgan “Mahsulot”ni qabul qilib olishi va bu haqda topshirish-qabul qilish dalolatnomasi, Hisob-varaqani imzolashi hamda imzolangan bir nusxasini “Sotuvchi” yetkazib berilishini ta'minlashi;

3.1.4. “Xaridor” tomonidan qabul qilib olingan “Mahsulot” uchun shartnomaning 2.2. bandida nazarda tutilgan muddatda to'lovni kechiktirsa “Sotuvchi” tomonidan yuborilgan ushbu qarzdolik yuzasidan solishtirma dalolatnomani imzolab berishi (bunda “Xaridor” Solishtirma dalolatnomani imzolashdan bosh tortsa ham solishtirma dalolatnoma imzolangan hisoblanadi);

3.1.5. Ushbu shartnoma bo'yicha “Sotuvchi”ning yozma talabi asosida tomonlar o'rtasida amalga oshirilgan buxgalteriya va iqtisodiy operatsiyalar to'g'risidagi hujjatlardan dublikatlarni 5 kunlik muddatda yetkazib berishi;

3.1.6. “Sotuvchi” tomonidan yetkazib berilgan “Mahsulot”ni qabul qilish jarayonida “Mahsulot” sifati, soni va yaroqlilik muddati “Prays list”da ko'rsatilganiga nomuvofiq bo'lsa, bu haqda tomonlar vakillari ishtirokida dalolatnoma tuzib, imzolab, aniqlangan nomuvofqlikni rasmga tushirib, elektron shaklda va rasm shaklida tuzilgan dalolatnomaga ilova qilib, shu kunning o'zida “Sotuvchi”ga yetkazilishini ta'minlash.

3.2. “Xaridor”ning huquqlari:

3.2.1. Savdo narxlar jadvali (prays list) da ko'rsatilgan “Mahsulot”larni o'zi xohlagan miqdorda buyurtma qilishi;

3.2.2. Buyurtma qilgan “Mahsulot”larni o'zi taqdim qilgan manzilgacha yetkazib berilishini talab qilishi yoki shartnomada taqdim qilishi lozim bo'lgan hujjatlarni taqdim qilib, “Sotuvchi”ning omborxonasidan “Mahsulot”larni olib ketishi;

3.2.3. “Sotuvchi”dan o'z buxgalteriya hisob-kitoblariga aniqlik kiritish maqsadida tomonlar o'rtasida amalga oshirilgan bank-moliya operatsiyalariga taaluqli hujjatlarni dublikatini talab qilib olish;

3.2.4. O'z iqtisodiy, moliyaviy va boshqa imkoniyatlariga ko'ra shartnoma majburiyatlarini bajarish bo'yicha shartnomaga o'zgartirish yoki qo'shimcha kiritish bo'yicha “Sotuvchi”ga yozma murojaat qilishi;

3.3. “Sotuvchi”ning majburiyatlari:

3.3.1. "Sotuvchi" "Xaridor" buyurtmasini to'g'ri va aniq tartibda jamiyat elektron bazasiga kiritishi va 3 ish kuni ichida elektron navbatga qo'yisha hamda bu haqda "Xaridor"ga ma'lumot taqdim qilishi (bunda buyurtmada belgilangan sanadan boshlab 3 ish kuni mobaynida "Xaridor" tomonidan to'lov amalga oshirilmasa elektron navbat bekor qilinadi); 3.3.2. "Харидор" томонидани шартномада кўрсатилган тўлов амалга оширилган кундан бешлаб 5 иш кунни мобайнида "Маҳсулот"ни "Харидор"га етказиб берилишини таъминлаши;

3.3.3. "Xaridor" vakili tomonidan shartnomada nazarda tutilgan hujjatlar taqdim qilinganda o'z omboridan "Xaridor" vakiliga "Mahsulot"ni berishi;

3.3.4. Shartnomaning 3.1.6. bandida nazarda tutilgan holat yuz berganida aniqlangan kamchilikni 5 ish kuni mobaynida bartaraf qilib, bu haqda dalolatnoma tuzib, ushbu dalolatnomani "Xaridor" vakiliga imzolotishi va xarajatlarni o'z hisobidan qoplashi (bunda xaridor vakili dalolatnomani imzolashdan asossiz ravishda bosh tortsa dalolatnoma imzolangan hisoblanadi);

3.3.5. "Xaridor"ning yozma talabiga ko'ra tomonlar o'rtasida amalga oshirilgan bank-moliya operatsiyalari to'g'risidagi hujjatlar dublikatini "Xaridor"ga yoki uning vakiliga yetkazib berilishini ta'minlash.

3.4. "Sotuvchi"ning huquqlari:

3.4.1. O'zbekiston Respublikasi hududida eng kam oylik ish haqining miqdori oshganda, shuningdek shartnomada nazarda tutilgan "Mahsulot"ni ishlab chiqarish va yetkazib berishga bilan bog'liq xarajatlarning oshganda, bundan tashqari "Sotuvchi" faoliyati yuritishi bilan bog'liq majburiy to'lovlar va soliqlar oshirilganda mahsulot narxini oshirish (bunda oshirilgan narxlar qabul qilingan buyurtmalarga tadbiiq qilinmaydi);

3.4.2. O'z buxgalteriya hisob-kitoblariga aniqlik kiritish maqsadida "Xaridor"dan tomonlar o'rtasida amalga oshirilgan bank operatsiyalariga oid hujjatlar dublikatini talab qilish;

3.4.3. "Xaridor" yoki uning vakilidan shartnoma tuzish yoki "Mahsulot" berish uchun shartnomada nazarda tutilgan hujjatlarni talab qilish;

3.4.4. "Xaridor"ga uning buyurtmasi bo'yicha yetkazib beriluvchi "Mahsulot"larni O'zbekiston Respublikasi hududida tibbiyotda ko'llashga ruxsat berilgan va ro'yxatdan o'tkazilganligini tasdiqlovchi davlat tilidagi sertifikatini va hamda qo'llash yo'riqnomasi bilan yetkazib berilishini ta'minlash;

4. TOVARLAR SIFATIGA QO'YILADIGAN TALABLAR

4.1. "Sotuvchi" tomonidan "Xaridor"ga uning buyurtmasi bo'yicha yetkazib beriluvchi "Mahsulot"larda O'zbekiston Respublikasi hududida tibbiyotda ko'llashga ruxsat berilgan va ro'yxatdan o'tkazilganligini tasdiqlovchi davlat tilidagi sertifikatini va hamda qo'llash yo'riqnomasi bo'lishi lozim;

4.2. "Mahsulot" sifati, tamg'alanishi va qadoqlanishi farmatsevtik hamda texnik talablarga mos kelishi, shuningdek "Mahsulot" sifati ruxsat beruvchi hujjatlar bilan taqqim qilinishi lozim;

4.3. "Sotuvchi" tomonidan "Xaridor"ga yetkazib beriluvchi "Mahsulot"ning yaroqlilik muddati yetkazib berilgan vaqtda "Mahsulot"da ko'rsatilgan yaroqlilik muddatidan 50 % dan kam bo'lmasligi lozim, agar ushbu muddatdan kam bo'lgan holda "Xaridor"ning yozma roziligini olishi lozim.

5. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI

5.1. "Sotuvchi" tomonidan "Xaridor" buyurtmasiga asosan yetkazib berilgan yoki "Sotuvchi" omboridan "Xaridor" vakili tomonidan qabul qilib olingan "Mahsulot" tegishli tartibda rasmiylashtirilib, tomonlar o'rtasida topshirish-qabul qilish dalolatnomasi imzolanganidan boshlab "Mahsulot" "Xaridor"ning mulki hisoblanadi va "Mahsulot"ni saqlash, sotish, nazorat qilish bo'yicha javobgarlik "Xaridor" zimmasiga o'tadi, shu vaqtdan boshlab "Mahsulot" soni, sifati, qadoqlanishi, tibbiy va farmatsevtik talablarga javob berishi bilan bog'liq e'tirozlar qabul qilinmaydi.

5.2. "Sotuvchi" tomonidan yetkazib berilgan mahsulot "Xaridor" tomonidan asossiz ravishda qabul qilishni to'liq yoki qisman rad qilsa, "Xaridor" "Sotuvchi"ga ushbu partiyada yetkazib berilgan "Mahsulot" umumiy qiymatining 15 foizi miqdorida jarima to'laydi.

5.3. "Sotuvchi" tomonidan yetkazib berilgan mahsulotni qabul qilishda "Xaridor" vakili o'zaro shakllangan ishonchli munosabatdan foydalanib asossiz ravishda yoki turli bahonalar bilan "Mahsulot"ni qabul qilish vakolatini beruvchi tegishli hujjatlarni taqdim qilmasa, shuningdek, "Sotuvchi"ni moddiy javobgar vakilining ishonchiga kirib, tegishli ishonchnoma taqdim qilmasdan yoki soxta yoxud muddati o'tgan ishonchnoma taqdim qilib, "Mahsulot"ni qo'lga kiritisa, O'zbekiston Respublikasi JKda nazarda tutilgan tegishli javobgarlikka tortish uchun jinoyat ishi qo'zg'atishga asos bo'ladi.

5.4. "Xaridor" mahsulotni qabul qilib olganidan so'ng 45 kunlik muddatda mahsulot pulini yoki to'lanmay qolgan qismini to'lamasa, o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun to'lanmagan qarzdorlik summasining 0,5 foizi miqdorida, ammo to'lanmagan qarzdorlik summasining 50 foizidan oshmagan miqdorda penya to'laydi.

5.5. Shartnomada ko'rsatilgan (Prays listda ko'rsatilan miqdorda) muddatda yetkazib berilmagan "Mahsulot" uchun "Sotuvchi" "Xaridor"ga yetkazib berilmagan mahsulot summasining 0,4 foizi miqdorida bunda yetkazib berilmagan "Mahsulot" summasining 50 foizidan oshmagan miqdorda penya to'laydi.

5.6. "Xaridor" o'zi qabul qilgan "Mahsulot"ni vakolatga ega bo'lmagan, shuningdek moddiy javobgar bo'lmagan uchinchi shaxslarga berib yuborganda yetkazib berilgan "Mahsulot" uchun "Sotuvchi" "Xaridor" oldida hech qanday javobgar bo'lmaydi.

5.7. Shartnomaning 8.4 bandida nazarda tutilgan majburiyatning o'z vaqtida bajarilmasligi natijasida ikkincha taraf o'z majburiyatini bajara olmasa, bajarilmagan majburiyat uchun taraf javobgar bo'lmaydi, shuningdek shartnoma 8.4 bandi talablariga rioya qilmagan taraf ikkinchi tarafni majburiyatni bajara olmasligi natijasida yetkazilgan zararini qoplab beradi.

Tomonlar o'rtasida boshqa munosabatlar yuzasidan shartnoma tuzilgan taqdirda har qaysi shartnoma alohida huquqiy kuchga ega bo'ladi va bir-biridan alohida hisoblanadi. Shuningdek, ushbu shartnomalar yuzasidan tomonlar o'rtasida kelib chiqqan nizo tegishli tartibda alohida hal qilinadi.

6. FORS-MAJOR

6.1. Tarafdardan biri ikkinchi taraf oldidagi majburiyatini bajarishga to'siq bo'luvchi o'z erki va irodasiga bog'liq bo'lmagan hamda oldini olish imkoniyatiga ega bo'lmagan holalar, shuningdek, tabiiy ofat, urush, mamlakat hududida favqulotda holat e'lon qinishi, bundan tashqari majburiyatlarni bajarish huquqini cheklovchi va bekor qiluvchi Respublikasi hududida umummajburiy bo'lgan normativ hujjatlarning qabul qilinishi holatlar yuzaga kelganda tarafdorlar ushbu majburiyatlari yoki majburiyatlarining bajarilmagan qismini uchun javobgar bo'lmaydi. Mazkur holatlar yuzaga kelgan taqdirda bir taraf ikkinchi tarafni majburiyatlarini yoki uning qismini bajarish imkonini bermagan holatni ko'rsatib, asoslantirilgan holda ikkinchi tarafni zudlik bilan ogohlantirishi zarur.

7. NIZOLARNI HAL QILISH TARTIBI

7.1. Ushbu shartnomani bajarish, o'zgartirish va bekor qilinishi bilan bog'liq munosabatlar natijasida yuzaga kelgan kelishmovchilik va nizolar o'zaro kelshuv va muzokaralar o'tkazish yo'li bilan hal qilinadi.

7.2. Shartnoma majburiyatlari bajarish bilan bog'liq nizolarni hal qilish uchun taraflardan biri tomonidan bildirilgan e'tiroznoma yoki talabnomalarga ikkinchi taraf e'tiroznoma yoki talabnomani olgan kundan boshlab 5 kunlik muddatda javob yo'llashi lozim.

7.3. Taraflar o'rtasida yuzaga kelgan nizolar va kelishmovchiliklarni o'zaro hal qilishga erishilmagan taqdirda ushbu nizo va kelishmovchiliklar Toshkent tumanlararo iqtisodiy sudiga murojaat qilib, sud orqali hal qilinadi.

7.4. Shartnomaning 5.3 bandida nazarda tutilgan holat aniqlanganda tegishli tartibda O'zbekiston Respublikasi JPKda nazarda tutilgan tartibda murojaat qilib hal qilinadi.

8. SHARTNOMANING AMAL QILISH MUDDATI VA BOSHQA SHARTLAR

8.1. Shartnoma tomonlar tomonidan imzolangan kundan boshlab kuchga kiradi va 31.12.2021 yilga qadar amal qiladi.

8.2. Shartnomaning muddati shartnomada belgilangan muddat tugaganidan so'ng ham ushbu shartnoma yuzasidan bajarilmay qolgan majburiyatlar uchun amal qiladi.

8.3. O'zbekiston Respublikasi hududida qabul qilingan umummajburiy ahamiyatga ega bo'lgan normativ huquqiy hujjatlarni qabul qilinishi natijasida shartnoma shartlariga o'zgartirish kiritish zaruriyati tug'ilganda, shuningdek, tomonlarning o'zaro kelishuvi natijasida shartnomaga kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalar faqat yozma shaklda amalga oshiriladi, taraflar tomonidan imzolaniib, muhr bilan tasdiqlangan kundan boshlab kuchga kiradi va taraflar uchun majburiy hisoblanadi.

8.4. Taraflarning yuridik manzili yoki bank rekvizitlari o'zgargan taqdirda, shuningdek, "Xaridor"ning "Mahsulot"larni qabul qilish ombori manzili o'zgargan taqdirda 5 kunlik muddatda ikkincha tarafni yozma shaklda ogohlantirishi zarur.

8.5. Shartnoma quyidagi hollarda bekor qilinadi:




- o'zaro kelishuvga asosan;

- tomonlar o'rtasida yuzaga kelgan nizo Sud orqali hal qilinib, majburiyatlarni bajarish sud qaroriga asosan belgilanganda;

8.6. Ushbu shartnomaga oid lekin, shartnomaga kiritilmagan barcha holatlar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlari asosida hal qilinadi.

8.7. Ushbu shartnoma taraflarning har birida saqlanadigan 2 nusxada tuziladi va ikkalasi ham bir xil yuridik kuchga ega bo'ladi hamda taraflar tomonidan imzolaniib, muhrlangan kundan boshlab kuchga kiradi.

9. TARAFLARNING REKVIZITLARI :

"SOTUVCHI"	"XARIDOR"
"Yasmina Farm Group" MCHJ	"Murzobot tibbiyot b"
Manzil: Toshkent shahar, Yunusobod tumani, 14 mavze, 22-uy -17 xonadon.	Manzil: <u>Rolgobot</u>
Bank: ATIB "Ipoteka bank" Mehnat filiali,	Bank: <u>Hisob-kitob kassa markazi</u>
H/r: 2020 8000 0009 6705 6001; STIR: 305983934;	H/r: <u>1000 22840222077072120054020</u>
MFO:00423;Tel: +99871 217 06 77	MFO: <u>00014</u>
QQS :326030088153	STIR: <u>201360615</u>
Direktor: A.U. Abdillaev 	Direktor: <u>A.M. Ganiev</u>
M.O. 	M.O. 

"Yasmina Farm Group" MCHJ va " Murrobot tibbiyot b " o'rtasidagi
 tuzilgan 22.01.2023 yildagi 33 -sonli shartnomaga

Yetkazib beriladigan dori - darmonlarning miqdori va narxini
SPETSIFIKATSIYASI

T/R	Dori darmonlarnig nomi	O'cho'v birligi	Miqdori	Narxi	QQS		Summa
					QQS foizz	QQS summasi	
1	Gemolifer 100ml paxla		350	45217,39	15%	2373912,9	18199996,5
2	—	—	—	—	15%	—	—
3	—	—	—	—	15%	—	—
4	—	—	—	—	15%	—	—
Jami:							18199996,5


Sotuvchi: "Yasmina Farm Group MCHJ "

Manzil: Toshkent shaxar, Yunusobod tumani, 14 - mavze 22-uy, 17-xonadon
 Telefon: +998 94 133 80 06
 X/R: 2020800000967056001
 Bank: ATIB " IPOTEKA BANK " mexnat filiali
 MFO: 00423
 STIR: 305983934

Koridor:
Murrobot tibbiyot b
Relqobot
X/PL00022860222077023100054010
RUKM ROKM
201380615

Raxbar: (imzo) Abdullayev U.A

Raxbar: (imzo) H. M. Gani'ev





**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN
HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO'G'RISIDA HUQUQIY XULOSA**

1.Loyiha turi:

Shartnoma № 000033

2.Loyihaning nomi:

Toshkent shaxridagi “Yasmina Farm Group” MChJning 2022 yi 28 yabvardagi 33-sonli shartnomani (dori-darmonlar uchun) Shartnoma umumiy summasi 18199996,5 (O'n sakkiz million bir yuz to'qson to'qqiz ming to'qqiz yuz to'qson olti) so'm 50 tiyinni tashkil qiladi.

Asos: O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash vazirligi huzuridagi farmasevtika tarmog'ini rivojlantirish agentligi 6602-sonli lisenziyasi, yuridik shaxsni davlat ro'yxatidan o'tkazish to'g'risidagi №667030-sonli guvohnomasi

3.Loyiha ishlab chiqaruvchisi va kiritilgan sana haqida ma'lumot:

Muzrabot tuman tibbiyot birlashmasi, 2022 yil «28» yanvar;

Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq;

Muzrabot tuman yuridik
xizmat ko'rsatish markazi
boshligi

2022 yil «28» yanvar



A.A.Abdullayev